Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuritdinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	
Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1262
G. Sh. Tursunova	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools	1266
Jambilov Nurillo Xabibilloevich	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
Mamadjonova Nozima Adhamovna	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
Munajat Sultonova	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi	

Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellashtirish, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	



MUHANDISLIK GRAFIKASI TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: O'QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR (CAD, 3D MODELLASHTIRISH, VR) ROLI

Tadjiyeva Feruza Muxtarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhandislik grafikasi ta'limining raqamli transformatsiyasi masalasi yoritilgan. CAD tizimlari, 3D modellash va VR texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish samadorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarning fazoviy tasavvuri, vizual-kognitiv ko'nikmalari hamda kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida raqamli yondashuvlarni joriy etish bo'yicha metodik yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: vizual, fazoviy proyeksiya, transformatsiya, virtual, kvazi-eksperimental, integratsiya, kontekst, kompetensiya, interaktiv, aksonometrik.

Abstract: This article examines the issue of digital transformation in the teaching of engineering graphics. The effectiveness of integrating CAD systems, 3D modeling, and VR technologies into the educational process is analyzed. The research findings indicate that the use of modern digital technologies significantly enhances students' spatial imagination, visual-cognitive skills, and professional training. Furthermore, the article proposes methodological solutions for implementing digital approaches to improve the quality of education in pedagogical universities.

Key words: visualization, spatial projection, transformation, virtual, quasi-experimental, integration, context, competence, interactive, axonometric.

Аннотация: В статье рассматривается проблема цифровой трансформации преподавания инженерной графики. Анализируется эффективность интеграции систем CAD, 3D-моделирования и VR-технологий в учебный процесс. Результаты исследования показывают, что использование современных цифровых технологий значительно улучшает пространственное воображение, визуально-когнитивные навыки и профессиональную подготовку студентов. Кроме того, в статье предлагаются методические решения по применению цифровых подходов для повышения качества образования в педагогических вузах.

Ключевые слова: визуализация, пространственная проекция, трансформация, виртуальный, квазиэкспериментальный, интеграция, контекст, компетенция, интерактивность, аксонометрический.

KIRISH

Zamonaviy muhandislik va texnologiya sohalarining jadal rivojlanishi, ayniqsa to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida, kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Ushbu talablar orasida muhandislik grafikasi (MG) fani alohida o'rin tutadi, chunki u har qanday texnik mutaxassisning fazoviy fikrlash, vizuallashtirish va loyiha hujjatlarini shakllantirish kabi fundamental ko'nikmalarining poydevorini tashkil etadi (Ivanov va Petrov, 2021). MG fani talabalarga uch o'lchovli obyektlarni ikki o'lchovli tekislikda tasvirlash va aksincha, tasvir asosida obyektning fazodagi shaklini tiklash qobiliyatini o'rgatadi. Bu esa muhandislik dizayni va loyihalash jarayonlarining boshlang'ich, lekin hal qiluvchi bosqichidir. An'anaviy MG o'qitish metodikasi asosan qalam, qog'oz va chizmachilik asboblariidan foydalanishga asoslanadi. Bu usul ko'nikmalarni rivojlanti-

rishda samarali bo'lsa-da, murakkab geometrik shakllar va fazoviy proyeksiyalarni tushunishda ayrim talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchiliklar o'z navbatida keyingi dizayn va loyihalash kurslarida, jumladan mashina detallari hamda qurilish konstruksiyalarini o'rganishda o'z aksini topadi. Zamonaviy muhandislik amaliyotida chizmalar deyarli butunlay CAD (Computer-Aided Design) tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli, ta'lim jarayonini an'anaviy metodikadan raqamli vositalarni integratsiya qilish orqali transformatsiya qilish dolzarb vazifadir (Smith, 2019). Raqamli transformatsiya nafaqat loyihalash tezligini oshiradi, balki 3D modellashirish imkoniyati orqali talabalarning obyektlarning fazodagi o'zaro joylashuvini kuzatish va manipulyatsiya qilish imkonini ham beradi.

Virtual reallik (VR) texnologiyalari esa obyektning virtual muhitda uch o'lchamda bevosita ko'rish va u bilan o'zaro aloqa qilish imkonini beradi, bu esa fazoviy tasavvurni shakllantirish uchun inqilobiy yondashuvdir (Chen & Hwang, 2020). Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarni ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtiradi, chunki ular real makonda turib obyektning o'rganish kabi tajriba orttiradilar. Ushbu tadqiqotning maqsadi – muhandislik grafikasi ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (CAD/CAE, 3D modellashirish, virtual reallik) integratsiyasining o'quvchilarning fazoviy tasavvuri va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'sirini empirik (tajribaviy) ravishda baholashdan iborat. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u oliy ta'lim muassasalarida MG fanini o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish bo'yicha aniq, statistik asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy gipotezasi (H1): zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan o'qitish metodikasi an'anaviy usullarga nisbatan muhandislik grafikasi bo'yicha talabalarning fazoviy tasavvuri va amaliy ko'nikmalarini statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori darajada rivojlantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muhandislik grafikasi ta'limiga raqamli vositalarning kirib kelishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, dastlabki CAD tizimlari (masalan, Sketchpad) paydo bo'lishi bilan ta'lim sohasi ham o'zgarishni boshlagan (Johnson, 1995). Bugungi kunda Autodesk AutoCAD, SolidWorks, Kompas-3D kabi professional dasturlar nafaqat sanoatda, balki oliy ta'limda ham standart o'quv vositalariga aylangan. Bu dasturlar talabalarga faqatgina chizishni emas, balki real muhandislik vazifalarini kompyuterda modellashirishni o'rgatadi.

CAD tizimlarining pedagogik afzalliklari. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, CAD tizimlarini qo'llash talabalarga chizmachilik standartlariga rioya qilishni tez o'rganishga, loyiha jarayonida xatolarni tezda tuzatishga va hujjatlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Peterson (2017) CAD-asoslangan o'qitish kurslari bitiruvchilari ish joylarida loyihalash vazifalarini an'anaviy usulda o'qiganlarga nisbatan 40% tezroq bajarishini aniqlagan. Biroq, CAD-dan faqat "raqamli chizg'ich" sifatida foydalanish emas, balki undan 3D modellashirish va geometrik tahlil (CAE – Computer-Aided Engineering) uchun foydalanish ta'lim samaradorligini tubdan oshiradi. 3D modellashirish talabalarga murakkab detallarni yig'ish va demontaj qilish kabi vazifalarni virtual muhitda bajarish imkoniyatini berib, ularning obyektning funksional tuzilishini chuqurroq anglashlariga yordam beradi. CAD texnologiyalari orqali talabalar murakkab geometriyalik detallarni osongina yaratishi va ularning turli proyeksiyalarini avtomatik tarzda olishlari mumkin, bu esa nazariy proyeksiyalash tamoyillarini tezroq tushunishga yordam beradi.

3D modellashirish va VR texnologiyalari. Fazoviy tasavvur – bu geometrik shakllarni aqlan manipulyatsiya qilish qobiliyati bo'lib, muhandislik muvaffaqiyatining asosiy omilidir. Monge (1795) tomonidan asos solingan proyeksiyalash nazariyasi fazoviy tasavvurning nazariy asosini tashkil etsa, 3D modellashirish ushbu nazariyani vizual va interfaol amaliyotga aylantiradi. Talabalar ekranda obyektning aylantirish, kesib ko'rish va ichki tuzilishini o'rganish orqali proyeksiyalarning hosil bo'lish jarayonini chuqurroq tushunadilar (Chen & Hwang, 2020). Ayniqsa, virtual reallik (VR) texnologiyalari qo'llanilganda, talabalar virtual makonda chizgan obyektlarini hajmda ko'rish imkoniga ega bo'ladilar. Bu "fazoda bo'lish" (immersion) effekti orqali fazoviy tasavvurni bevosita stimulyatsiya qiladi. Masalan, VR yordamida talaba murakkab detallarni aksonometrik proyeksiyasini va ularni yig'ish jarayonini birinchi shaxs ko'rinishida boshdan kechirishi mumkin, bu esa an'anaviy 2D chizmalarda erishib bo'lmaydigan chuqurlikdagi tushunchani beradi.

Integratsiyalashgan metodikaning rivojlanishi. So'nggi yillarda "Blended Learning" (aralash ta'lim) yondashuvi MG fanida ommalashdi. Ushbu yondashuv an'anaviy doskadagi nazariy darslarni va qo'l bilan chizish amaliyotini CAD, 3D modellashirish platformalaridagi amaliy mashg'ulotlar bilan birlashtirishni nazarda tutadi (Garcia, 2018). Ta'lim natijalari bo'yicha o'tkazilgan qator meta-tahlillar bu integratsiyalashgan metodikaning nafaqat bilim o'zlashtirish, balki muhandislik muammolarini yechish qobiliyatini ham yaxshilashini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar o'quv materialini vizual idrok etish imkoniyatini kengaytirish orqali o'rganish motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, chunki mashg'ulotlar yanada qiziqarli va real hayot bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya MG ta'limining muqarrar yo'nalishi hisoblanadi. An'anaviy metodika nazariy asosni bersa, raqamli vositalar uni amaliyotga tez va samarali tatbiq etish



imkonini beradi. Ammo O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida aynan CAD, 3D va VR texnologiyalarining o'zlashtirishga bevosita ta'sirini o'lchash bo'yicha statistik asoslangan tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois, ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot kvazi-eksperimental qiyosiy dizayn asosida olib borildi. Maqsad – eksperimental guruhda qo'llanilgan innovatsion o'qitish metodikasining o'quvchilar natijalariga ta'sirini nazorat guruhi natijalari bilan solishtirishdan iborat. Bunday dizayn ta'lim sohasidagi yangi metodikalar samaradorligini o'lchashda keng qo'llaniladi. Tadqiqot Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universitetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari orasida o'tkazildi. Jami 60 nafar talaba tasodifiy tanlab olindi va ikkita guruhga bo'lindi: nazorat guruhi (NG) – 30 nafar talaba hamda eksperimental guruhi (EG) – 30 nafar talaba. Barcha talabalar umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv dasturi bo'yicha bir xil boshlang'ich bilim darajasiga ega edi. Guruhlarning jinsiy, yosh va akademik profili bir xil ekanligi tasdiqlandi, bu esa ma'lumotlarning ishonchiligi ta'minladi. Eksperiment "Muhandislik grafikasi" (MG) fani bo'yicha bir semestr davomida (15 hafta, haftasiga 4 soat) olib borildi. Har ikkala guruh bilan bir xil o'qituvchilar ishladi, bu esa "o'qituvchi effekti"ni minimallashtirish imkonini berdi.

Nazorat guruhi (NG)da o'qitish an'anaviy usullar asosida olib borildi (A. Ashirbayev, M. Xalimov, U. Rixsi-boyev, Ch. Shokirova, N. Tashimov darsliklariga asoslangan). Nazariy mashg'ulotlar doskada o'tkazilib, amaliy mashg'ulotlar qalam va qog'oz (A3 format) hamda chizmachilik asboblariidan foydalangan holda amalga oshirildi. Eksperimental guruhi (EG)da esa o'qitishda "aralash ta'lim" (Blended Learning) yondashuvi qo'llanildi. Nazariy qism (50%) an'anaviy usulda o'qitildi, lekin raqamli vizualizatsiyalar bilan boyitildi. Amaliy qism (50%) raqamli vositalar asosida tashkil etildi. Talabalar murakkab proyeksiyalar va kesimlarni SolidWorks dasturida 3D modellashtirish orqali o'rganishdi. Ayniqsa, proyeksiyalarning o'zaro bog'liqligini va fazoviy shakllarni to'liq anglash uchun HTC Vive VR garniturasini yordamida yaratilgan maxsus o'quv modullarida ishlash imkoniyati yaratildi. Ushbu modullar talabalar uchun virtual muhitda o'z chizmalari ustida harakatlanish, ularni qismlarga ajratish va vizual tahlil qilish imkonini berdi. Har bir dars o'zining raqamli laboratoriya mashg'ulotini o'z ichiga oldi. O'qitish samaradorligi ikki bosqichda baholandi: birinchisi – boshlang'ich test (pre-test), bunda semestr boshida ikkala guruhning Muhandislik grafikasi fani bo'yicha boshlang'ich bilim va fazoviy tasavvur darajasi aniqlanib, 20 ta standart savoldan iborat test o'tkazildi (10 ta nazariy, 10 ta fazoviy manipulyatsiya). Fazoviy tasavvur testi Purdue Spatial Visualization Test: Rotations (PSVT:R) asosida modellashtirildi. Ikkinchi bosqich – yakuniy test (post-test), semestr oxirida o'tkazilib, 20 ta o'xshash savoldan iborat bo'ldi. Test tarkibida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy topshiriqlar ham kiritilgan bo'lib, talabalar berilgan 3D modelning texnik chizmasini CAD muhitida yaratishlari talab qilindi. Bu ularning chizmachilik standartlariga rioya qilish tezligi va aniqligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yig'ilgan ma'lumotlar SPSS 25.0 statistik dasturi yordamida tahlil qilindi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini aniqlash uchun Mustaqil namunalar uchun Studentning T-testi (Independent Samples T-test) qo'llanildi. Statistik ahamiyatlik darajasi $p < 0.05$ deb qabul qilindi. Boshlang'ich test natijalari nazorat (NG) va eksperimental (EG) guruhlari o'rtasida o'zlashtirish darajasi jihatidan statistik farq mavjud emasligini ko'rsatdi (1-jadval). Bu, tajriba boshlanishidan oldin ikkala guruhning o'rganish qobiliyati va boshlang'ich bilim darajasi teng ekanligini tasdiqlaydi.

1-jadval: Boshlang'ich test natijalari tahlili. p -qiymati ($p = 0.65$) statistik farq yo'qligini tasdiqladi, bu tadqiqotning ichki ishonchiligi oshiradi

Guruh	Talabalar soni	O'rtacha ball (100 dan)	Standart og'ish (SD)	T-test natijasi
Nazorat (NG)	30	58.1	5.3	$t(58) = 0.45, p = 0.65$
Eksperimental (EG)	30	58.7	4.9	-

Yakuniy test natijalari ikki guruh o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi. Eksperimental guruhning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi an'anaviy usulda o'qitilgan nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi.

2-jadval: Yakuniy test natijalari tahlili

Guruh	(Talabalar soni)	O'rtacha ball (100 dan)	Standart og'ish (SD)	T-test natijasi
Nazorat (NG)	30	72.3	6.8	$t(58) = 5.15, p < 0.001$
Eksperimental (EG)	30	85.9	5.5	-

EG guruhining o'rtacha bali NG guruhiga nisbatan 13.6 ballga yuqori bo'lib, bu zamonaviy raqamli metodikaning an'anaviy usullardan ustunligini isbotlaydi. Fazoviy tasavvur ko'rsatkichlariga kelsak, yakuniy testdagi murakkab proyeksiyalarni tushunish va fazoviy masalalarni yechishga oid savollarga alohida e'tibor qaratildi. EG talabalari o'rtacha 92.5%, NG talabalari esa 68.0% to'g'ri javob berishgan. Fazoviy tasavvur bo'yicha o'tkazilgan alohida t-test natijasiga ko'ra, $t(58)=4.88$, $p<0.001$ qiymati raqamli texnologiyalar fazoviy tushunchalarni rivojlantirishda eng samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Eksperimental guruhda o'tkazilgan anonim so'rovnomma (Likert shkalasi) natijalariga ko'ra, talabalarning darslarga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshgan. 94% talaba CAD/3D modellash tirish yordamida materialni tezroq o'zlashtirganini ta'kidlaydi, 87% talaba Virtual Realistik tajribasi mavzuni chuqurroq tushunishga yordam berganini qayd etdi, 80% dan ortig'i esa kelajakdagi muhandislik kurslarida ham bu texnologiyalardan foydalanishni xohlashlarini bildirgan.

Dastlabki sinov (Pre-test) natijalari ($t(58)=0.45$, $p=0.65$) har ikkala guruhning boshlang'ich bilim darajasida sezilarli farq yo'qligini ko'rsatdi: A guruh $M=68.5$, $SD=8.2$, B guruh $M=69.1$, $SD=7.5$. Bu, guruhlar taqqoslashga yaroqli ekanini va o'rganishdagi keyingi farq faqat o'qitish usuliga bog'liqligini bildiradi. Yakuniy sinov (Post-test) natijalari esa B (eksperimental) guruhning A (nazorat) guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarga erishganini ko'rsatdi: B guruh $M=85.7$, $SD=6.5$, A guruh $M=78.4$, $SD=7.9$. $t(58)=-3.15$, $p<0.01$ natijasi farqning statistik ahamiyatli ekanini, Cohen's $d=0.82$ esa eksperimental aralashuvning katta samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. AR texnologiyasi qo'llanilgan B guruh an'anaviy usulda o'qitilgan A guruhga nisbatan yuqoriroq natijalarga erishdi: B guruh $M=75.9$, A guruh $M=65.2$. Bu natijalar AR texnologiyasi yordamida olib borilgan mashg'ulotlar talabalarda uch o'lchamli (3D) fazoviy jismlarni tasavvur qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari muhandislik grafikasi ta'limida ilgari surilgan ilmiy gipotezani to'liq tasdiqladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar – CAD, 3D modellash tirish va VR integratsiyasi – o'quv jarayonining samaradorligini an'anaviy usullarga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada oshiradi.

Natijalarning izohi: Eksperimental guruhning yuqori ko'rsatkichlari avvalgi adabiyotlar tahlilida keltirilgan nazariy asoslar bilan uyg'unlashadi. CAD tizimlari talabalarga tezkor prototiplash va qayta ishlash imkonini beradi, bu esa xatolardan o'rganish tezligini oshiradi. Ayniqsa, VR texnologiyasining ta'siri alohida ahamiyatga ega. VR muhitida chizilgan ob'ektning "o'zaro aloqa" (interaksiya) orqali idrok etilishi talabaning ongida mavhum uch o'lchovli ob'ektning real modeli shakllanishiga yordam beradi. Bu jarayon fazoviy tasavvurni passiv kuza-tuvdan (2D chizmada) faol idrok etish darajasiga o'tkazadi. Mazkur natijalar Chen & Hwang (2020) hamda Peterson (2017) tadqiqotlarida qayd etilgan xulosalar bilan hamohangdir. Raqamli vositalar orqali o'rganish talabalarning vizual xotirasini kuchaytiradi, abstrakt tushunchalarni konkretlashtiradi va kognitiv faollikni oshiradi. Qo'shimcha tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar nafaqat o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning motivatsiyasi va mustaqil ishlash ko'nikmalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar murakkab loyiha vazifalarini bajarishda ijodiy yondashuvni qo'llashga va muhandislik muammolarini vizuallashtirishga ko'proq moyillik bildirganlar. Bunday ko'nikmalar zamonaviy ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadigan soft skills – yumshoq kompetensiyalarning shakllanishiga bevosita hissa qo'shadi. Raqamli transformatsiya jarayoni faqat ta'lim mazmunini emas, balki butun o'quv ekotizimini, shu jumladan baholash va nazorat qilish usullarini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Masalan, baholash endilikda faqat chizmaning to'g'riligiga emas, balki 3D modelning funktsionalligi va loyiha yondashuviga ham qaratilishi lozim. Pedagogik implikasiyalar: Ushbu natijalar muhandislik ta'limi dasturlarini jadallashtirilgan raqamlashtirish zarurligini ko'rsatadi. O'qituvchining roli endilikda ma'lumot uzatuvchidan interaktiv ta'lim muhitini tashkil etuvchi, ya'ni "facilitator"ga aylanishi lozim. Ta'lim muassasalari CAD dasturlari uchun litsenziyalar sotib olishlari, VR kabi yuqori texnologiyali uskunalarga sarmoya kiritishlari va o'qituvchilarni ushbu texnologiyalarni samarali qo'llashga o'rgatishlari zarur. Bunday investitsiyalar uzoq muddatda yuqori malakali, raqamli kompetensiyaga ega va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash orqali o'z samarasini beradi. Shuningdek, muhandislik grafikasi kursi loyihaviy yondashuvga asoslanib, talabalarga real ishlab chiqarish muammolarini raqamli vositalar yordamida hal etish imkonini berishi maqsadga muvofiqdir. O'quv dasturlariga VR-laboratori-yalarni majburiy komponent sifatida kiritish tavsiya etiladi. Tadqiqotning cheklavlari va kelajakdagi yo'nalishlar: Ushbu tadqiqot bir universitet konteksti bilan cheklangan bo'lib, natijalarni butun ta'lim tizimiga umimlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Bundan tashqari, VR uskunalari va CAD dasturiy ta'minotining yuqori narxi ta'lim muassasalari uchun ma'lum moliyaviy qiyinchiliklar tug'diradi. Eksperimentning qisqa muddatli bo'lgani sababli, olingan ko'nikmalarining uzoq muddatli saqlanishi hamda keyingi muhandislik kurslariga ta'siri chuqur o'rganilmagan. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu metodikaning turli muhandislik yo'nalishlaridagi talabalarga uzoq muddatli ta'sirini aniqlashga, shuningdek arzon va ochiq kodli raqamli vositalar (masalan, Blender kabi) yordamida o'qitish samaradorligini qiyoslashga qaratilishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.



XULOSA

Ushbu tadqiqot muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiyaning samaradorligini o'rganishga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, CAD, 3D modellashtirish va VR texnologiyalariga asoslangan zamonaviy pedagogik metodika qo'llanilgan eksperimental guruhda talabalarning o'zlashtirish darajasi va fazoviy tasavvurni baholash ko'rsatkichlari an'anaviy usuldan foydalanilgan nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo'ldi ($p < 0.001$). Bu gipoteza to'liq tasdiqlandi. Raqamli vositalarning interaktivligi va vizuallashtirish qobiliyati murakkab geometrik prinsiplarni o'zlashtirishni soddalashtiradi hamda talabalarni kelajakdagi professional faoliyatga samaraliroq tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga ushbu texnologiyalarni kengroq integratsiya qilish muhandis kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ivanov, A., & Petrov, V. (2021). The Role of Engineering Graphics in Forming Professional Competencies of Future Engineers. *International Journal of Education and Science*, 8(2), 112–125.
2. Smith, J. (2019). Digital Transformation in Higher Engineering Education: Challenges and Opportunities. *European Journal of Engineering Education*, 44(5), 701–715.
3. Chen, H., & Hwang, G. J. (2020). Effects of a Mobile Augmented Reality-Based Learning Strategy on Students' Spatial Geometry Abilities and Learning Motivation. *Interactive Learning Environments*, 28(1), 18–35.
4. Johnson, D. W. (1995). The Early History of Computer-Aided Design. *IEEE Annals of the History of Computing*, 17(3), 42–53.
5. Peterson, L. (2017). Comparative Analysis of Traditional vs. CAD Instruction in Developing Drawing Skills. *Global Journal of Engineering Education*, 21(1), 15–28.
6. Monge, G. (1795). *Géométrie descriptive* (Descriptive Geometry). Baudouin.
7. Garcia, R. (2018). The Impact of Blended Learning on Engineering Graphics Education. *Journal of Engineering Education*, 107(4), 589–605.
8. Xalimov, M.K., & Shokirova, S.O. (2022). Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan talabalarning auditoriyadan tashqaridagi mustaqil faoliyatini tashkil qilish va boshqarish texnologiyasi. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(5), 641–652.
9. Xalimov, M.K., & Safoeva, K.Q. (2022). O'quvchilarning chizmani tahlil qilishi fazoviy tasavvurini rivojlantirish omili sifatida. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 428–435.
10. Xalimov, M.K. (2021). Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilar faolligini oshirish (aksonometrik proeksiyalar mavzusi misolida). *International Journal of Conference Series on Education and Social Sciences (Online)*, 1(2).
11. Tursunbaev, S., Ashirbaev, A., Valiev, A., Xalimov, M., & Tashimov, N. (2023). The Effect of the Amount of Lithium in Aluminum Lithium Alloys on the Property of Fluidity. *E3S Web of Conferences*, 417, 04010. EDP Sciences.
12. Ro'ziyev, E.I., & Ashirboyev, A.O. (2010). *Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
13. Ashirboyev, A.O. (2022). Geometrik jismlar va ularning fazoviy holatlarini tariflashda ularning asosiy tayanch manbalarini hisobga olish. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(5), 279–289.
14. Rahmonov, I., Valiyev, A., & Valiyeva, B. (2013). *Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari*. Toshkent: TDPU Rizografi.
15. Tashimov, N.E., & Tuxtaqulova, Z.B. (2022). Muhandislik grafikasida loyihalashga oid masalalarni yechish orqali talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(Special Issue 4-2), 445–451.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.